



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS:3 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	TOVARLAR AUDITI NATIJALARINI AUDITORLIK HISOBOTIDA AKS ETTIRISH TARTIBI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Qurbonov Muhammadali Bahodirovich</i>	4
2.	O'ZBEKISTONDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shirinova Obida Toshpulatovna</i>	8
3.	ORGANIZATION OF AN AUDIT OF THE MOVEMENT OF FIXED ASSETS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS REQUIREMENTS <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna</i>	12
4.	QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Qo'chqorov Muslimbek Bobojon o'g'li</i>	16
5.	SAVDO KORXONALARIDA TOVAR OPERATSIYALARI AUDITINING TASHKILY TA'MINOTI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Tursunboyev Sarvar Shuxrat o'g'li</i>	19
6.	SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich</i>	24
7.	TURIZM KORXONALARIDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH <i>Ibragimov Mansur Mardonovich</i>	27
8.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOB VA NAZORATINING INNOVATSION MEXANIZMLARI <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Davronov Miraziz Baxtiyor o'g'li</i>	30
9.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	33
10.	MEHNAT HAQI HISOB VA AUDITINING ZAMONAVIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Yusupov Shavkar Xushvaqt o'g'li</i>	37
11.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOB VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Akmalov Ilg'or Nazirovich</i>	41
12.	XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALARDA XARAJATLAR HISOB VA KALKULYATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Toshbekov Firdavs Abdurauf o'g'li</i>	44
13.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	47
14.	ASOSIY VOSITALARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASH VA BAHOLASHNI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shakarov Shahzod Sobir o'g'li</i>	52
15.	XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDIT VA QARZ MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH HISOBINI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Mahmudova Go'zal Samadjon qizi</i>	56

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



ASOSIY VOSITALARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASH VA BAHOLASHNI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Shirinov Uchqun Abdusalilovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti

Email: ushirinov@mail.ru

Shakarov Shahzod Sobir o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti magistranti

Email: shahzodshakarov753@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada asosiy vositalarni hisob obyekt sifatida tasniflash va baholashning nazariy hamda amaliy jihatlari, ularning iqtisodiy mohiyati va korxonada ishlab chiqarish quvvatidagi o'rnini BHXHS 16 "Mulq, uskuna va jihozlar" standarti asosida tahlil qilingan. Tadqiqot davomida asosiy vositalarni tan olish mezonlari, tannarxni shakllantirish elementlari va amortizatsiya hisoblashning zamonaviy usullari o'rganilib, milliy amaliyotni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: asosiy vositalar, xalqaro standartlar, BHXHS 16, amortizatsiya, tannarx, qayta baholash, moliyaviy hisobot, foydali xizmat muddati, ishlab chiqarish birligi usuli.

Abstract: This article examines the theoretical and methodological aspects of accounting for fixed assets based on international standards. In particular, the economic essence of fixed assets, recognition criteria, valuation methods, and depreciation accounting approaches in international practice are analyzed. The study focuses on IAS 16 "Property, Plant and Equipment" and the experience of several foreign countries in accounting for fixed assets. Furthermore, the importance of applying international accounting standards in ensuring transparency and reliability of financial reporting is substantiated. The article concludes with scientific and practical recommendations aimed at improving fixed asset accounting practices in the national accounting system.

Keywords: fixed assets, international standards, IAS 16, depreciation, valuation, accounting, audit, financial reporting, International Financial Reporting Standards (IFRS), revaluation.

Абстрактный: В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты классификации и оценки основных средств как объектов учета, их экономической сущности и роли в производственной мощности предприятия на основе стандарта МСФО 16 «Основные средства». В ходе исследования были изучены критерии признания основных средств, элементы формирования себестоимости и современные методы расчета амортизации, а также разработаны предложения по совершенствованию национальной практики.

Ключевые слова: основные средства, международные стандарты, МСФО 16, амортизация, себестоимость, переоценка, финансовая отчетность, срок полезного использования, метод единицы продукции.

Kirish (Введение/Introduction).

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida integratsiya jarayonlarining jadallashuvi hamda xalqaro kapital bozorlari rivojlanishi korxonalarda moliyaviy hisobotlarni xalqaro talablari asosida yuritishni taqozo etmoqda. Xususan, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini haqqoniy aks ettirish, investitsion jozibadorligini oshirish hamda xorijiy investorlar ishonchini mustahkamlashda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan asosiy vositalar hisobi va auditini xalqaro standartlar asosida tashkil etish zamonaviy iqtisodiyotning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Asosiy vositalar korxonalarining moddiy-texnik bazasini tashkil etuvchi eng muhim iqtisodiy resurslardan biri bo'lib, ular ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlashda, mahsulot tannarxini shakllantirishda hamda korxonada rentabelligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, sanoat, qurilish va infratuzilma sohalarida asosiy vositalarning ulushi yuqori bo'lib, ularning hisobini to'g'ri tashkil etish moliyaviy natijalarning ishonchligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli asosiy vositalarni tan olish, baholash, amortizatsiya hisobini yuritish va qayta baholash jarayonlarini xalqaro standartlar asosida tashkil etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Xalqaro amaliyotda asosiy vositalar hisobi BHXHS 16 "Mulq, uskuna va jihozlar" standarti asosida tartibga solinadi. Mazkur standart asosiy vositalarni tan olish mezonlari, boshlang'ich va keyingi baholash usullari, amortizatsiya hisoblash tartibi hamda aktivlarni qayta baholash masalalarini qamrab oladi. Shu bilan birga, AQSHning US GAAP tizimi, Avstraliyaning AASB 116 standarti va boshqa xalqaro amaliyotlar ham asosiy vositalar hisobini yuritishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi asosiy vositalar hisobining xalqaro standartlar asosidagi nazariy jihatlarni tadqiq etish, ularni tan olish va baholashning zamonaviy yondashuvlarini tahlil qilish hamda milliy hisob tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review). "Asosiy vositalarni hisob obyekt sifatida tasniflash va baholashni MHXS (IFRS) asosida takomillashtirish"

Asosiy vositalar buxgalteriya hisobi tizimida korxonada mol-mulkini shakllantiruvchi eng muhim uzoq muddatli aktivlar hisoblanadi. Ularni tasniflash va baholash masalalari xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS/IFRS) doirasida tobora takomillashib bormoqda. Xususan, IAS 16 "Property, Plant and Equipment" standarti asosiy vositalarni tan olish, dastlabki va keyingi baholash mezonlarini belgilab beradi hamda ularning amortizatsiya siyosatini tartibga soladi [1].

Xalqaro amaliyotda asosiy vositalarni hisobga olishda ularning foydali xizmat muddati, iqtisodiy manfaatlar oqimi va ishonchli o'lchov mezonlari asosiy e'tibor markazida turadi. **IFRS Conceptual Framework (2024)**da aktivlarni tan olishning asosiy sharti sifatida kelgusida iqtisodiy foyda kelib tushishi va qiymatning ishonchli baholanishi ko'rsatilgan [2]. Bu yondashuv asosiy vositalarni faqat balansda aks ettirish emas, balki ularning real iqtisodiy qiymatini aniqlashga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda asosiy vositalarni baholashda "fair value" (adolatli qiymat) konsepsiyasi keng qo'llanilmoqda. IFRS 13 "Fair Value Measurement" standartiga ko'ra, aktivlarning bozor qiymatiga yaqin

baholanishi moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshiradi [3]. Bu esa ayniqsa inflyatsion iqtisodiyot sharoitida asosiy vositalar qiymatining eskirishini real aks ettirish imkonini beradi.

Milliy amaliyotda ham MHXSga moslashuv jarayonlari kuchaymoqda. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi tizimida asosiy vositalarni hisobga olish tartibi xalqaro standartlarga yaqinlashtirilmoqda. Jumladan, qayta baholash modeli va amortizatsiya hisoblash usullarining diversifikatsiyasi korxonalarining moliyaviy holatini realroq ko'rsatishga xizmat qilmoqda [4].

Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, asosiy vositalarni tasniflashda ularning funksional maqsadi, ishlab chiqarish jarayonidagi roli va xizmat muddati asosiy mezon sifatida qaralishi lozim. Masalan, ishlab chiqarish uskunalari, bino-inshootlar va transport vositalari alohida hisob guruhlarga ajratilishi hisob tizimining aniqligini oshiradi [5].

Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida asosiy vositalarni hisobga olish jarayonlarini avtomatlashtirish dolzarb masalaga aylangan. ERP tizimlari va raqamli aktivlar reyestri asosiy vositalar harakatini real vaqt rejimida kuzatish imkonini bermoqda [6]. Bu esa hisob siyosatining aniqligi va tezkorligini oshiradi.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda asosiy vositalarning eskirishini hisoblashda chiziqli, kamayib boruvchi qoldiq va ishlab chiqarish hajmiga asoslangan usullar samaradorligi tahlil qilingan [7]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish hajmiga bog'liq amortizatsiya usuli aktivlardan foydalanish intensivligini aniqroq aks ettiradi.

Bundan tashqari, asosiy vositalarni qayta baholash siyosati korxonalar kapitalining real qiymatini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Jahon Banki va Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) hisobotlarida aktivlar qiymatini muntazam qayta baholash investitsion jozibadorlikni oshirishi ta'kidlanadi [8].

Umuman olganda, zamonaviy adabiyotlar asosiy vositalarni hisob obyektini sifatida tasniflash va baholashda MHXS talablariga to'liq moslashish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda adolatli qiymat konsepsiyasini keng qo'llash zarurligini ko'rsatmoqda [9].

Tadqiqot metodlari (Методы /Methods).

Ushbu tadqiqotda asosiy vositalarni hisob obyektini sifatida tasniflash va baholashni MHXS (IFRS) talablari asosida takomillashtirish masalasi o'rganilgan. Tadqiqotning metodologik asosini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (xususan, IAS 16 "Property, Plant and Equipment", IFRS 13 "Fair Value Measurement" va Conceptual Framework) hamda milliy buxgalteriya hisobi me'yoriy-huquqiy hujjatlarini tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullari kompleks qo'llanildi. Jumladan, tahlil va sintez usuli orqali asosiy vositalarni tasniflashning mavjud yondashuvlari o'rganildi va ularning o'zaro farqlari aniqlandi. Induksiya va deduksiya usullari yordamida xalqaro standartlardagi umumiy tamoyillar asosida milliy amaliyot uchun xulosalar shakllantirildi.

Shuningdek, qiyosiy tahlil usuli asosida MHXS va O'zbekiston buxgalteriya hisobi tizimidagi asosiy vositalarni tan olish, baholash va amortizatsiya hisoblash tartiblari solishtirildi. Bu yondashuv mavjud farqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga imkon berdi.

Tadqiqotda statistik va iqtisodiy tahlil usullari ham qo'llanilib, asosiy vositalarning dastlabki qiymati, eskirishi va qayta baholash ko'rsatkichlarining korxonalar moliyaviy natijalariga ta'siri baholandi. Bu jarayonda moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida vertikal va gorizontal tahlil elementlaridan foydalanildi.


Bundan tashqari, sistemali yondashuv orqali asosiy vositalarni hisobga olish jarayoni yagona tizim sifatida ko'rib chiqildi va uning tarkibiy elementlari (tan olish, tasniflash, baholash, amortizatsiya va chiqib ketish) o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi. Bu yondashuv hisob siyosatini kompleks takomillashtirish imkonini berdi.

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash va modellashtirish usullari ham qo'llanilib, asosiy vositalarni adolatli qiymat asosida baholash modeli ishlab chiqildi hamda uning amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari baholandi.

Umuman olganda, qo'llanilgan metodologik yondashuvlar asosiy vositalarni hisobga olish tizimini MHXS talablari asosida takomillashtirishga, shuningdek, milliy amaliyot va xalqaro standartlar o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results).

Rivojlangan mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan yirik korxonalarda asosiy vositalar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonining moddiy negizi sifatida muhim o'rin egallaydi. Ushbu vositalar korxonalar faoliyatining uzluksizligini ta'minlash, ishlab chiqarish quvvatlarini shakllantirish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish hamda mahsulot va xizmatlar sifatini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu bilan birga, asosiy vositalarning tarkibi, texnik holati va ulardan foydalanish samaradorligi korxonalarining raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Samsung, Apple, Amazon va shunga o'xshash yirik kompaniyalarning jami aktivlari va undagi asosiy vositalarning ulushi bo'yicha quyidagi jadvalni ko'rib chiqishimiz mumkin.



1-rasm. Dunyoning yirik kompaniyalari jami aktivlari va asosiy vositalari qiymati¹

Xorij adabiyotlari bo'yicha asosiy vositalarga berilgan tariflar turlicha va har birining alohida mohiyati mavjud. Masalan KPMG Emeritus, Northern Illinois University professori AQSHlik olim Donald E. Kieso o'zining Intermediate Accounting kitobida quyidagicha tarif keltirgan: "Asosiy vositalar – bu korxonalar faoliyatida uzoq muddat davomida foydalaniladigan va oddiy faoliyat jarayonida sotish uchun mo'ljallanmagan moddiy aktivlardir." Mazkur yondashuvni davom ettirgan holda Ph.D. va M.B.A, University of California, Berkeley; B.S, University of North Carolina at Chapel Hill professori Eugene F. Brigham o'zining Financial Management: Theory and Practice kitobida shuni ta'kidlaydiki "Asosiy vositalar kompaniyaning uzoq muddatli real aktivlari bo'lib, ular ishlab chiqarish quvvatini ta'minlaydi va daromad yaratishda asosiy rol o'ynaydi." Xalqaro olimlarning fikrlarini inobatga olgan holda mahalliy olimlarning izlanishlari va ilmiy ishlarida asosiy vositalar bo'yicha turli tariflar va tavsiflar keltirib o'tilgan. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori Urazov K.B takidlashicha "Asosiy vositalar ishlab chiqarish jarayonida ko'p marotaba qatnashadigan, o'zining natural shaklini saqlab qoladigan hamda qiymatini mahsulot tannarxiga bosqichma-bosqich o'tkazadigan mehnat vositalari hisoblanadi" Toshkent iqtisodiyot va servis instituti professori S. N. Tursunov takidlashi bo'yicha "Asosiy vositalar – bu ishlab chiqarish jarayonida ko'p marotaba qatnashadigan, o'z qiymatini mahsulotga asta-sekin o'tkazadigan va o'z natural shaklini saqlab qoladigan mehnat vositalaridir."

Asosiy vositalarga xalqaro amaliyotda qo'yiladigan talablar ularning buxgalteriya hisobida tan olinishi va korxonalar faoliyatida samarali qo'llanilishini ta'minlovchi muhim mezonlar hisoblanadi. Ushbu talablar xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) hamda milliy buxgalteriya hisobi standartlari asosida shakllantirilgan bo'lib, ular asosiy vositalarning iqtisodiy mohiyatini aniq ifodalaydi. Ushbu mezonlarni tizimli ravishda tahlil qilish maqsadida ularni quyidagi diagrammada tasniflash mumkin. Har bir talab esa asosiy vositalarning tan olinishi va ulardan foydalanish samaradorligini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Butun dunyo bo'yicha qo'yilgan talablar xususan Amerika mamlakatlari, Afrika, Yevropa, uzoq sharq mamlakatlari, Rossiya federatsiyasi Xitoy kabi yirik davlatlarda asosiy vositalarga qoyilgan umumiy talablar quyidagi diagrammada aks ettirilgan

¹ Muallif ishlanmasi



2-rasm. Asosiy vositalarga qo'yilgan talablar²



3-rasm. BHXS 16 ga ko'ra asosiy vositalarning tannarxi¹

Asosiy vositalar korxonada faoliyatining moddiy-texnik bazasini tashkil etuvchi muhim iqtisodiy resurslar hisoblanadi. Ularning tarkibi va tuzilmasini to'g'ri aniqlash hamda hisobini samarali yuritish maqsadida asosiy vositalarni turli mezonlar asosida tasniflash zarur hisoblanadi. Bunday tasniflash yondashuvi nafaqat buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etish, balki moliyaviy tahlilni chuqurlashtirish va boshqaruv qarorlarini asoslashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro amaliyotda, xususan BHXS 16 "MulK, bino va uskunalar" talablari asosida, asosiy vositalar ularning iqtisodiy mazmuni, funksional vazifasi, moddiy tarkibi hamda foydalanish xususiyatlariga ko'ra guruhlanadi. Ushbu tasnif asosiy vositalarning korxonada faoliyatidagi o'rnini yanada aniqroq baholash, ularning samaradorligini tahlil qilish va moliyaviy hisobotda to'g'ri aks ettirish imkonini beradi. Shu munosabat bilan asosiy vositalarni quyidagi asosiy mezonlar bo'yicha tasniflash maqsadga muvofiqdir.

1-jadval

Asosiy vositalarning xalqaro talablarga ko'ra tasniflanishi³

ASOSIY VOSITALAR	
Funksional tasnif	Ishlab chiqarish vositalari
	Noishlab chiqarish vositalari
Moddiy tarkibi bo'yicha	Bino va inshootlar
	Mashina va uskunalar
	Transport vositalari
	Boshqa vositalar
Foydalanish holati bo'yicha	Amalda foydalanishdagi
	Zaxirada
	Konservatsiyada
Iqtisodiy maqsadiga ko'ra	Ishlab chiqarish maqsadlarida
	Boshqaruv mamuriy maqsadlarda
	Ijara maqsadlarida

Xalqaro amaliyotda asosiy vositalar hisobi asosan BHXS 16 "MulK, bino va uskunalar" asosida yuritilib, ko'plab mamlakatlarda ushbu standart milliy tizimlarga moslashtirilgan holda qo'llaniladi. Shu bilan birga, ayrim davlatlarda, xususan AQSHda, US GAAP tizimi mustaqil


ravishda amal qiladi. Natijada, turli qit'alarda asosiy vositalar hisobini tartibga soluvchi standartlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsa-da, ularning umumiy metodologik asoslari o'xshashdir. Shu munosabat bilan dunyo mamlakatlarida asosiy vositalar hisobini tartibga soluvchi standartlar quyidagi qit'alar kesimida tizimlashtirilgan holda keltiriladi.

Asosiy vositaning tannarxi quyidagilardan tashkil topadi:
 1. Savdo chegirmalarini va imtiyozlarini chegirgan holda, uning xarid narxi, jumladan import bojlari va sotib olish bilan bog'liq qoplanmaydigan soliqlar.
 2. Aktivni undan tadbirkorlik subyekti rahbariyati tomonidan ko'zlangan holda foydalanish uchun zarur bo'lgan joy va holatiga olib kelish bilan bog'liq xarajatlar.

3. Asosiy vosita obyektini demontaj qilish va olib tashlash hamda u joylashgan joydagi tabiiy resurslarni qayta tiklash xarajatlarining boshlang'ich bahosini. Tadbirkorlik subyekti asosiy vosita sotib olingan paytda yoki undan ma'lum davr mobaynida tovar-moddiy qiymatliklarni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlarda foydalanish oqibatida ushbu xarajatlar bo'yicha majburiyatni o'z zimmasiga oladi.

Eskirish hisoblash usuli. Eskirish hisoblash usuli tadbirkorlik subyekti tomonidan aktivdan olinadigan kelgusi iqtisodiy naflar qay tarzda sarflanishini aks ettirishi kerak. Aktiv bo'yicha qo'llaniladigan eskirish hisoblash usuli kamida har moliyaviy yilning oxirida qayta ko'rib chiqilishi kerak va, aktivda mujassamlangan kelgusi iqtisodiy naflar

olinishi kutilayotgan tarzda ahamiyatli o'zgarish paydo bo'lganida, ushbu o'zgarigan tarzni aks ettirish uchun qo'llaniladigan usul ham o'zgartirilishi kerak. Bunday o'zgarish buxgalteriya hisobi maqsadida baholashdagi o'zgarish sifatida BHXS 8 ga muvofiq hisobga olinishi kerak. Aktivning eskirish hisoblanadigan qiymatini uning foydali xizmat muddati davomida sistematik tarzda xarajatlarga olib borish uchun turli eskirishni hisoblash usullaridan foydalanish mumkin. Ushbu usullar:



4-rasm. BHXS 16 ga ko'ra asosiy vositalarga eskirish hisoblash usullari⁴

To'g'ri chizikli usul qo'llanilganda, ushbu 90 000 birlik xizmat muddati davomida teng taqsimlanadi va har yili 18 000 birlikdan (90 000 / 5) amortizatsiya hisoblanadi. Ushbu yondashuv aktivning samaradorligi vaqt o'tishi bilan o'zgarimas deb qaraladigan binolar yoki oddiy inventarlar uchun xosdir. Aksincha, kamayib boruvchi qoldiq usuli aktivning dastlabki yillarida yuqori amortizatsiya xarajatlarini nazarda tutadi. Agar amortizatsiya stavkasi 40% deb belgilansa, birinchi yili aktivning balans qiymatidan (100 000) kelib chiqib 40 000 birlik amortizatsiya hisoblanadi, keyingi yillarda esa qoldiq qiymat kamayishi

² Muallif ishlanmasi
³ Muallif ishlanmasi

⁴ Muallif ishlanmasi

bilan xarajatlar ham mos ravishda qisqarib boradi. Yo'1 qurilishi sohasida eng adolatli hisoblangan ishlab chiqarish birligi usuli esa bevosita amaliy natijaga bog'liqdir. [10] Agar yuqoridagi texnika o'z muddati davomida 10 000 soat ishlashi prognoz qilinsa, har bir ish soati uchun amortizatsiya stavkasi 9 birlikni (90 000 / 10 000) tashkil etadi. Agar texnika birinchi yili 3 000 soat ishlasa, amortizatsiya 27 000 birlik, ikkinchi yili 1 000 soat ishlasa, 9 000 birlik etib belgilanadi. Mazkur usul aktivdan foydalanilmagan davrlarda amortizatsiya hisoblanmasligini ham ta'minlashi mumkin.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

Tadqiqot natijalariga ko'ra, asosiy vositalarni hisob obyektini sifatida tasniflash va baholashda MHXS (IFRS) talablari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, IAS 16 standarti asosiy vositalarni tan olish, dastlabki va keyingi baholash hamda amortizatsiya hisoblash jarayonlarini xalqaro darajada yagona tamoyillar asosida tartibga soladi. Bu esa moliyaviy hisobotlarning shaffofligi, taqqoslanuvchanligi va ishonchligini oshiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, milliy buxgalteriya hisobi tizimi va MHXS o'rtasida ayrim farqlar mavjud bo'lib, ular asosan qayta baholash siyosati, adolatli qiymatni qo'llash darajasi hamda amortizatsiya usullarining cheklanganligi bilan bog'liq. Ushbu farqlar korxonalarining moliyaviy holatini to'liq va real aks ettirishga ma'lum darajada to'sqinlik qilmoqda.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida asosiy vositalarni hisobga olish jarayonlarining avtomatlashtirilishi, ERP tizimlarining joriy etilishi va aktivlar reyestrining raqamlashtirilishi hisob tizimining samaradorligini sezilarli darajada oshirishi aniqlangan.

Umuman olganda, asosiy vositalarni MHXS asosida baholash va tasniflashni takomillashtirish korxonalarining investitsion jozibadorligini oshiradi hamda moliyaviy hisobotlarning xalqaro bozorlarda tan olinishiga xizmat qiladi.

Takliflar

Asosiy vositalarni hisobga olishda MHXS, xususan IAS 16 va IFRS 13 talablarini to'liq implementatsiya qilish mexanizmlarini kuchaytirish lozim.

Milliy amaliyotda adolatli qiymat (fair value) usulidan kengroq foydalanishni yo'lga qo'yish va qayta baholash siyosatini takomillashtirish zarur.

Asosiy vositalarni tasniflashda funksional yondashuvni kuchaytirib, ularni iqtisodiy mazmuni va foydalanish maqsadiga ko'ra yanada aniq guruhlariga ajratish tavsiya etiladi.

Amortizatsiya hisoblashning xalqaro usullarini (kamayib boruvchi qoldiq, ishlab chiqarish hajmiga asoslangan usul) amaliyotga keng joriy etish maqsadga muvofiq.

Korxonalarda asosiy vositalarni hisobga olish jarayonlarini raqamlashtirish va ERP tizimlarini joriy etishni jadallashtirish lozim.

Buxgalteriya hisobi xodimlarining MHXS bo'yicha malakasini oshirish uchun muntazam o'quv va sertifikatlash dasturlarini yo'lga qo'yish kerak.

Asosiy vositalar bo'yicha ichki audit va nazorat tizimini kuchaytirish orqali ularning to'liq inventarizatsiyasi va real baholanishini ta'minlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. IAS 16 – Property, Plant and Equipment. International Accounting Standards Board (IASB), 2023.
2. IFRS Conceptual Framework for Financial Reporting. IASB, 2024.
3. IFRS 13 – Fair Value Measurement. International Accounting Standards Board, 2023.
4. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun (yangi tahrir), 2021–2024 yillar amaliyoti.
5. Nobes, C. & Parker, R. Comparative International Accounting. Pearson, 2022.
6. Deloitte. Global Accounting Standards and Digital Transformation Report, 2023.
7. Kieso, D., Weygandt, J., Warfield, T. Intermediate Accounting, 2023 edition.
8. World Bank. Corporate Financial Reporting and Asset Revaluation Practices, 2022.
9. IFRS Foundation. Annual Improvements to IFRS Standards, 2024.
10. Xasanov Farrux Ravshanovich. (2026). O'zbekiston sug'urta tashkilotlari faoliyatida korporativ boshqaruv tizimining holati: mavjud muammolar va rivojlanish istiqbollari. Insurance market of Uzbekistan, 3(2), 25–27. https://doi.org/10.55439/INS/vol3_iss2/376